

“PUANKARE” DA OLAM VA ODAM MUNOSABATI FALSAFASI TASVIRI

Misliddinova Malika Xolbayevna

Guliston davlat pedagogika instituti, dotsent

Gmail: malikamisliddinova@gmail.com

Muhammadiyeva Dono Juraboy qizi

Guliston davlat pedagogika instituti

2- bosqich 37-25 guruh talabasi

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Abduqayum Yo‘ldoshning hayoti va ijodi qisqacha yoritiladi. Bundan tashqari ushbu maqolada insonning ortidan doimo vaqt quvib yurishi, hali vaqt bor deb emas, balki harakatda bo‘lishi, oila va orzular o‘rtasidagi tafovutlar haqida fikr yuritilgan. Har bir inson o‘ylaganchalik hayotiy yo‘llar har doim ham bir xil bo‘lmasligi, past va balandliklar bo‘lishi A.Yo‘ldoshning “Puankare” asari misolida ochib berilganligini ushbu maqola orqali ko‘rishimiz mumkin.*

Kalit so‘zlar: *Puankare gipotezasi, ilmiy ish, oila, vaqt, Grigoriy Perelman.*

Аннотация. *В данной статье кратко рассматривается жизнь и творчество Абдулкаюма Юлдаша. Кроме того, в статье обсуждается постоянное стремление человека к времени, тот факт, что времени еще не существует, и различия между семьей и мечтами. На примере работы А. Юлдаша «Пуанкаре» раскрывается тот факт, что жизненные пути не всегда совпадают с представлениями людей, что бывают взлеты и падения.*

Ключевые слова: *гипотеза Пуанкаре, научная работа, семья, время, Григорий Перельман.*

Abstract. *This article briefly covers the life and work of Abdukayum Yuldash. In addition, this article discusses the constant pursuit of time by a person, the fact that time does not yet exist, and the differences between family and dreams. We can see through this article that the fact that life paths are not always the same as everyone thinks, that there are lows and highs, is revealed in the example of A. Yuldash's work "Poincaré".*

Keywords: *Poincaré hypothesis, scientific work, family, time, Grigory Perelman.*

Kirish (Introduction)

Abduqayum Yo‘ldosh 1962 - yil 29- fevralda Samarqand viloyatining Qo‘shrabot tumanida tug‘ilgan. Toshkent politexnika institutini (hozirgi Texnika universiteti) bitirgan (1985). “Shuhrat” medali bilan taqdirlangan (1999) [1.]. “Puankare” hikoyasi asosida O‘zbek davlat drama teatrida “Hayot formulasi” spektakli sahnalashtirilgan (2013) [2.].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review)

Abduqayum Yo‘ldoshning ijodi tadqiqotalab mavzularga boy, shu sababli ham uning “Puankare” hikoyasini tadqiqot mavzusi etib belgilashga qaror qildik. Hikoyadagi olam va odam, vaqt va orzular munosabatlari, inson umrining chegaralanganligi, inson orzularini

amalga oshirish uchun bur umr ba'zan kamlik qilishi, vaqtning qimmati yo'qotilganidan so'ng bilinishi, uni ortga qaytarish imkonsizligi, orzular armonga aylanmasligi uchun vaqtdan bugun, ha, ha bugun to'g'ri hamda unumli foydalanish falsafasi diqqat - e'tiborimizda bo'ldi. Hikoya o'quvchiga hayot falsafalari ichra qanday yashashni o'rgatadi.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology)

Puankare gipotezasi — topologiya fanidagi eng murakkab masalalardan biri bo'lib, u fazoning shakli va o'lchovlari haqidagi tushunchani o'zgartirgan. Asar qahramoni aynan shu gipotezani hal etish orzusiga berilib, umrini ilmga bag'ishlaydi. Asarni o'qir ekanmiz, ko'z oldimizga o'z hayotimiz keladi. Institutni bitirish arafasida asar qahramoni Puankare gipotezasining shaydosiga aylanadi. Aslida qahramonning ilmiy orzusi uning hayotining markazida turgan, ammo hayotning real talablari — oila, majburiyat va vaqt — bu orzularni sinovdan o'tkazadi. Bu gipoteza ko'pgina mashhur olimlarni o'ylantirgan, ammo yechimi topilmagan edi. Biroq hali yosh va energiyaga boy bo'lgan qahramonimiz bu gipotezani yechishga astoydil harakatni boshladi, hatto nomzodlik ishiga mavzu qilib olmoqchi bo'lganida ilmiy rahbarining bunday ishdan qaytargani unga kor qilmadi. Qahramon o'ttiz yildan ortiq umrini shu ilmiy ish uchun sarflagan bo'lsa, puankarening javobini topish uchun o'qishni bitirganidan so'ng buni o'ylab ko'rди, aynan shuning javobini topish uchun harakatni boshladi. Lekin u to'ng'ich farzand bo'lgani, ota-onasining qistovi bilan oila qurishi kerakligini bildi. Bosh qahramon doim o'ziga o'zi: “Shu vaziyatni hal qilib olay, ilmiy ishni davom ettiraman”, - deb va'da beraveradi. Biroq kunlar o'tgan sari orzusi ortga surilaveradi, o'ttiz yili qanday o'tganini sezmay qoladi. Hikoyaning boshida vaqtni bittagina portifel orqali tasvirlab beriladi. Go'yoki aynan o'sha potifelni sotib olsa hamma muammosi hal bo'ladigandek ko'rindi uning uchun. Bu asar mazmunidan shuni bilishimiz mumkinki, hech bir narsa abadiy emas, har bir narsaning yakuni bor, har bir reja- orzuni bajarishga ulgurish lozim.

Asarda yana bir voqeaga duch kelamiz. Aslida hikoya 2012-yilda yozilgan bo'lishiga qaramay ba'zi voqealar haligacha davometayotganini tushunamiz. Qahramonni mashina urib ketgan vaqti atrofdagi insonlar unga yordam berishdan ko'ra “...Bu endi shopirni sog'ib ichadi”- deyishgan. Aslida esa u bunday niyatda emas edi. Ko'p vaziyatda insonning asl niyatini bilmay turib unga oson baho berish mumkin. Vaholanki, u bunday niyatda bo'lmagan “Garchand o'shal baxtsiz hodisa tufayli qatorasiga to'rt yil hassa tayanib yurishga o'tgan bo'lsam-da, meni chap oyog'imdagi boldir suyagining to'rt enlik qisqargani emas, nogahoniy zarba bois qo'limdan otilib ketgan portefilimdan sochilgan bitiklarimning izziz yo'qolgani ko'proq iztirobga soldi”¹. Ko'rdingizmi, haqiqiy niyati, maqsadi qanday ekanligini. Odamlarning fikri har doim ham to'g'ri bo'lavermaydi. Oradan vaqtlar o'tib qahramonimiz oila quradi, aynan to'y kuni qaynonasi tomonidan so'roq qilingani va shu vaziyatda qahramon tilidan maqtov sifatida aytilgan “Qizingiz “yomo-on”” so'zi uchun umrini oxirigacha pand yeganini ko'rishimiz mumkin. Huddi shu vaziyatda er va xotin o'rtasiga uchinchi odam

¹ Abduqayum Yo'ldosh “Puankare” T.:Ma'naviyat. 2023

qo'shilgani, vaqt o'tganidan keyin yuzaga keladigan muommolarda ham hissasi bo'lgani, hayotida bor bo'lgan narsalarga qoniqmay undan yaxshisini istab hozirgi ahvolidanda yomonroq holatga tushib qolganini ko'ramiz.. "Kuchli erkak ortida – kuchli ayol turadi"² shunday holatni ko'rib shu maqolni qo'llashni joiz deb bildik. Agar uchinchi odam qo'shilishi va qahramonimizning rafiqasi har bir ishda xayr bor deb bilib o'z jufti haloliga ma'naviy tomondan yordam berganida edi. Balki ularning oilalari bundanda go'zal bir voqealarga duch kelishi mumkin edi. Aynan shu rafiqasi uchun jonini jabborga berib, har bir ishga qo'l urib ko'rdi. Yaqin do'sti bilan birga bir qancha biznes boshlashga harakat qildi. Ishi yurishmadi (ilm - fan odami edi-da). Erkak kishi uchun bu hayotda yaxshi ayol dunyoning yarim matosi, yarmi esa iymonidir. Shunday ekan juft tanlashda hamma hushyor bo'lishi, jufti haqida ko'proq va yaxshilab fikr qilishi zarurligi asarda yaqqol ko'zga tashlanadi. Dunyoqarashi, qiziqishlari bir biriga to'g'ri kelgan, har qanday holatda bir birini qo'llab turishni muhim deb bilishi oilani mustahkamlashga xizmat qiladi. Qahramonimizning ayoli esa bunday toifadagi ayollardan emas. Qahramonimiz uchun eng avvalo uni tushunadigan aqlli, ilmi va farosatli rafiqqa zarur, ammo uning ayoli esa biznesmen, toparmon-tutarmon umr yo'ldoshga muhtoj. Ikkisi bir oila, lekin ikkisi ikki xil qutbda yashayotgandek go'yo. Bu orqali asarda bir-birini tanimay, bilmay turmush qurish, o'zgalar aralashuvi tufayli oila oila bo'lmasligini kitobxonga yetkaza olishga harakat qilingan. Aynan shu joyda asarda shaxsiy voqelar orqali jamiyatda ilmga berilgan insonlarning qadri, ularning ruhiy dunyosi va oila bilan uyg'un yashash muoammosi ko'tarilgan. Uning yagona umidi shogird topish va puankarening javobini tagiga yetish edi. Shogird topdi ham. Shogird bilan hammasini kelishib oldi. Hatto masalani javobini topishganda katta mablag'ga ega bo'lishlari va bu pullarning barchasi shogirdga tegishini aytdi. Uning uchun endi faqat maqsadga yetish, dunyodan armonsiz o'tish muhim edi. Bu voqeadan so'ngi qaytadan yana talabalik yillariga qaytdi, turli xil orzular qila boshladi. Ammo ma'lum vaqtdan so'ng shogirdi uylanadi. Masalani javobini topish uchun yana ozgina vaqt qolganiga shogirdi umid beradi. Ammo ustoz, oxiri qanday tugashini, uylangach hammasi barbod bo'lishini bilardi. Lekin ustozning qo'lidan nima ham kelardi. Uylanma deyolmas... Bundan keyin esa yolg'iz o'zi harakatga kirishdi. Yana hayotiga bir dunyo yumushlar, dunyo ishlari kelib qoldi. Kunlarning birida qahramonimiz internetda aynan o'zi javobini qidirib yurgan puankare masalasini yechimiga duch kelib qoladi. Uni Sankt-Peterburgda yashovchi, institutda katta ilmiy xodim bo'lgan 41 yoshli Grigoriy Perelman isbotlabdi. Eng alam qiladigan narsa, masalani javobini 99 foiz to'g'ri bajargan va atiga bir qadamgina qolgan bo'lari. Lekin uning hayotiga muommolar hech qachon tugamadi, shu sababli u hayotidagi eng katta maqsadidan ayrildi desak ham bo'ladi. Gipotezani Perelmen yechgani qahramon uchun ilmiy yengilish bo'ldi, lekin asarning asl ma'nosi esa vaqtning ustidan insonning ojizligini anglashdir. Qahramonimizni vaqt ortida qoldirdi, u esa oruzlarida jimgina qolib ketdi. Bu adolatsizlik deb qarash mumkindir. Gipotezani yechimiga atiga bir qadamgina qolgan bo'lsa ham hayot unga beshavqatlik bilan

² O'zbek xalq maqoli

javob berdi. Bu yerda biri muvaffaqiyatga erishdi, biri esa o'z orzulari ichida qolib ketdi. Ha, vaqt kutmaydi. Nimadir qilmoqchi bo'lsang, shu bugun qil, ertaga kech bo'lishi mumkin, vaqt kutmaydi, vaqt to'xtamaydigan, doim harakatdagi dunyodir. U bilan hamohang harakatda bo'lsangina orzularga erishasan.

Qahramonimiz telbaga aylandi. Jinnixonaga tushdi. U nido qilardi: Xudoyim, meni o'ttiz yil orqaga qaytar, qaytar, Xudoyim...³

Xulosa va yechim

Xulosa qilib aytganda, bu dunyoda har kimning ham o'z puankaresi bor. Odamzod bor ekan, u maqsadsiz, hissiz yashay olmaydi. Kimdadur katta, kimdadur kichik, yana kimdadur esa oliy maqsadlar bor. Hayotning turli xil tashvishlari bizning ana shunday maqsadlarimizga erishish uchun to'sqinlik qilaveradi. Lekin ko'nglimizdagi umid uchquni hech ham so'nmaydi. Har on xuddi mash'aladek yonib turadi. Hayotining ana shunday mayda yumushlari orzular yo'lida bizga to'sqinlik qilishga harakat qiladi. Bir yumushni hal qilganimizdan keyin, yana biri kelib bizni chalg'itishi, maqsadimizga erishish yo'lida umrimizni besamar etishi mumkin, buni sezmay ham qolamiz. Keyin esa biz zabt etmoqchi bo'lgan cho'qqida o'zgasini ko'rgach, dardi dunyomiz qorong'ulashadi. Asarda yana bir voqeaga duch kelamiz, aynan qahramonimiz qiynalib yurgan bir paytda bir ishxonada ishlaydigan ayoldan yordam so'raydi. Majbur bo'lganidan shu holatga tushib qoladi. Ayol to'plab qo'ygan pullari va tilla taqinchog'igacha beradi. Oradan ancha vaqt o'tib u ayolni qidirib borsa, institutda katta olimlar qatorida uning ham ismi familyasi yozilgan bo'ladi. Shundan so'ng qahramonimiz u ayolning sabri va aqliga hayrat ko'zi bilan boqadi. Huddi shu joyda biz hikoyada faqat maqsadga erishishni emas balki vijdonli va insonparvarlik hislarini ham ko'ramiz. Biz faqat o'z orzularimiz ortidan quvib, insoniylik tuyg'usini ba'zida unutib ham qo'yamiz. Bilasizmi? Aslida Puankare hikoyasi insonning orzulari sindirilsa ham, orzu qilishdan hech ham voz kechmaslik va orzu qilish qudratini yo'qotmaslik kerakligi haqida. To'g'ri vaqt insonni sinaydi, lekin haqiqiy orzular vaqt bilan orzu qilinmaydi, chin yurak va ruh bilan o'lchanadi. Orzusiz ruh o'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abduqayum Yo'ldosh "Puankare" T.:Ma'naviyat. 2023.
2. O'zbek xalq maqoli.
3. <https://tafakkur.net/abduqayum-yoldoshev.haqida>
4. Puankare A. *Science and Hypothesis* (Ilm va gipoteza). — Nyu-York, 1905.
5. https://kitobxon.com/oz/yozuvchi/yuldoshev_abdukayum